

HUVAYDO IJODIDA SHE'RIY SAN'ATLAR

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

Ichki ishlar vazirligi

Buxoro akademik litseyi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Huvaydo lirikasida qo'llanilgan she'riy san'atlar haqida fikr yuritiladi. U yor, visol, g'am, ko'z, ashk, ishq, dard kabi timsollar orqali o'zining chuqur ichki holatini ifodalaydi. Ayniqsa, "ishq" timsoli Huvaydo ijodining markaziy obrazidir – bu nafaqat dunyoviy, balki ilohiy ishqdir. Uning g'azallari Alisher Navoiy an'analarini davom ettiradi. Har bir g'azali bir mavzuga yo'naltirilgan, badiiy yaxlitlikka ega bo'lib, goh lirika, goh hikmat, goh esa tasavvufiy tahlil ruhida yozilgan.

Kalit so'zlar: Kitobat, tashbeh, talmeh, didaktika, ishq, g'azal, portret, tajohuli orifona, ta'did.

Huvaydo ijodida she'riy san'atlar muhim o'rin tutadi. U mumtoz Sharq she'riyati an'analarini asosida yozgan bo'lib, o'z asarlarida turli badiiy san'at vositalaridan mohirlik bilan foydalangan. Quyida Huvaydo ijodida uchraydigan asosiy she'riy san'atlarlar haqida fikr yuritamiz:

She'riyatda arab alifbosidagi harflarning qo'llanilishi **kitobat** badiiy san'ati deb ataladi, uning yordamida oshiqning "alif"dek nozik qiyofasi qayg'u va g'am bilan egilgan.

"Nigoro, bori g'am birla faqir-u notavon aylab,

"Alif"dek qomatimni "lom-alif" yanglig' duto qilding"

(Huvaydo. Devon. –B. 132)

(Ey go 'zal, men bechorani g'am bilan faqirga aylantirding, "alif"dek qomatimni "lom-alif" kabi egib qo'yding)

Bu misralarda shoir **tashbeh**dan foydalanadi. "**Alif**" – arab alifbosining birinchi harfi bo'lib, tik holatda yoziladi, ya'ni bejirim tik qomatni ifodalaydi.

“Lom-alif” esa ikki harfdan iborat: “الف-لام”, arab yozuvida “ا” shaklida yoziladi va egri chiziqli ko‘rinishga ega. Bu yerda u qomatning egilgan, bukilgan holatini anglatadi. Shoir aytmoqchiki, sevgilimning sitami (g‘ami) meni nochor holga solib, ilgari tik, gavdali bo‘lgan qomatimni (ya’ni o‘zimni) egiltirib qo‘ydi—majoziy ma’noda, g‘am bosgan, bukilgan.

G‘azalda insonning ichki dunyosini ochishda ijodkordan katta iste’dod talab qiladi. G‘azal va boshqa janrlarning xususiyat va talablarini puxta o‘zlashtirgan Huvaydo asl she’rlar yaratishga muvaffaq bo‘ldi:

“Desalar: yoring yuzi monandi gul,
Ushbu so‘zdin kelgusi orim mening”

(Huvaydo. Devon. –B. 124)

(*Agar ular: yoringning yuzi atirgulga o‘xshaydi, desalar, men bu so‘zlardan uyalaman*). “Qaddini qildim mushobah sarfga,

Or etar ul sho‘x raftorim mening”.

(Huvaydo. Devon. –B. 124)

(*Yorimning qaddini sarvga qiyoslaydilar, mening go‘zalim bu gaplardan uyaladi*)

Huvaydo g‘azallarida yorning portretini yaratishda o‘ziga xos mahoratga egaligini ko‘rishimiz mumkin: Masalan, bir g‘azalida:

“Bir qalandar hindubachcha xirmani gul ustida,
Rumg‘a mehmon bo‘lib, o‘lturmishin ko‘rdum bu kun.
Bir qaro qush ul zamon uchqonda gulzor ustidin,
Ikki oh-u sahni gulzor tuzmishin ko‘rdum bu kun”.

(Huvaydo. Devon. –B. 188)

(*Bugun men bir hinduning atirgullar ichida sayr qilayotganini ko‘rdim. Rumga mehmon bo‘lib kelgan. Bugun men bog‘da qoraqush uchib o‘tganini va gulzorda ikkita ohuni ko‘rdim*).

Bu yerda go‘zal ta’riflanadi: qoshlarning harakatlanishi qora qushning otishma ustida uchishiga qiyoslanadi va ikki g‘izol uning ko‘zlarini anglatadi.

Bunday **portretlarni** yaratish mahorati keyingi asrlar iste'dodli shoirlarini ilhomlantirgan. Shunday qilib, Zokirjon Furqat shu satrlar ta'sirida ayni mavzuda yangi obrazli iboralar yaratdi:

“Qoshlari ostida go‘yo ikki fatton ko‘zлари,
Ikki hindubachadurkim, yondoshib yo tortadur”.¹

(*Qosh ostidagi ikkita jozibali ko‘z ikki hindu kabi, o‘ziga jalb etub yoy tortadur*).

She’riyatda fikrni yanada yorqinroq ifodalash uchun **talmeh** badiiy san’atidan unumli foydalanadi:

“Ayo dilbar, jahon xalqi aro afsonadur Majnun,
Senga mendek zamona xalqidin Majnun gado bo‘lmas”.

(Huvaydo. Devon. –B. 97)

Shoir bu misralarda o‘zining ishqiy fidoyiligini mashhur Majnun bilan solishtirib, lekin uni ham ortda qoldirishini ta’kidlamoqda. Ya’ni Majnun Layliga oshiq bo‘lib telbasifat yurdi, ammo shoirning o‘zi sevgisida undan ham sadoqatliroq, hatto dunyoda bunchalik ishqida beqaror, kambag‘al, telba kishi topilmaydi, degan da’vo bor.

“Ey Huvaydo, aymog‘il Mansurdek sirringni fosh,
Aylasang, xo‘yi “analhaq” dordin andisha qil”

(Huvaydo. Devon. –B. 145)

(*Huvaydo, Mansur kabi sirlaringni oshkor qilma, “analhaq” doridan ehtiyyot bo‘l*).

Mansur Halloj o‘zining ilohiy sirlarini ochiq e’lon qilib (“Analhaq”—“Men Haqman”) degani uchun qatl etilgan edi. Shoir esa do‘stiga yoki o‘ziga shama bilan deydi: “Agar sen ham ilohiy haqiqatlarni fosh etmoqchi bo‘lsang, avval buning oqibatini, boshingga tushadigan balolarni o‘yla”.

Bu yerda “xo‘yi analhaq”—“Men Haqman” deyish holati—tasavvufda ilohiy birlikni anglash va o‘zini Haq bilan bir ko‘rish darajasiga yetganlikni bildiradi, lekin dunyoviy odamlar uchun bu gap kufr hisoblanib, jazo sabab bo‘lgan.

Bu misralarda **talmeh** badiiy san’ati Majnun, Mansur Hallojga ishora qilish

¹ Furqat. Tanlangan she’rlar, 2-tom.—T: 1959. —B.133.

orqali yuzaga kelgan.

Huvaydoning she'rlari jo'shqin, ohangdor, tili juda sodda va tushunarli bo'lib, ularni o'qiganda kishilarda kuchli hissiy tuyg'u paydo bo'ladi.

Huvaydo lirkasida afsonaviy yoki tarixiy joylar, mamlakatlar, kishi nomlari ko'pincha **talmeh** usuli sifatida qo'llaniladi. Huvaydo ifodalamoqchi bo'lgan g'oyani konkretlashtirish, to'liq ifodalash uchun ularni she'rga kiritadi. "Ko'ngulni bir parivashga berib hayron bo'lib qo'lmas"

Eram bog'i yiroq tushdi, netay, anda borib bo'lmas".

(Huvaydo. Devon. –B. 98)

(Men yuragimni bir parivashga berib, hayron bo'lib qoldim. Eram bog'i uzoqligi uchun, men u yerga borolmayman).

Shoir o'z ko'nglini betakror go'zallikka berib, shu ishqning chigal yo'llarida adashganini aytmoqda. Sevgi orzulari va baxti – "Eram bog'i" – esa unga endi juda uzoq, yetib bo'lmas darajada ko'rindi.

Bu baytda ishqdagagi ojizlik, orzu va haqiqiy holat o'rtasidagi tafovut hamda ko'ngilning ozorlanishi juda nozik ifodalangan. "Parivash" – fors tilida "pariga o'xshash", nihoyatda go'zal ma'nosini beradi. "Eram bog'i" esa qadimda dunyodagi eng go'zal bog'lardan biri sifatida tanilgan. va so'ngra tasavvuf va adabiyotda orzu qilingan jannat ramziga aylangan.

"Vah, mani boshimga tushdi, na qilay, savdoi ishq,

Ayta bersam, zarrasiga toqat etmas ko'hi Qof".

(Huvaydo. Devon. –B. 111)

(Eh, mening boshimga ishqning savdosi (telbaligi) tushdi, endi nima qilay, agar bu ishq dardini gapira boshlasam, uning zarrachasiga ham Qof tog'i chidab turolmas edi).

Bu baytda shoir o'zining ishq dardining nihoyasiz og'irligini ifodalaydi. U deydi: bu ishq meni savdoga soldi, men abgor va telba bo'lmas. Agar bu dardni so'z bilan ifoda qilmoqchi bo'lsam, hatto Qof tog'i (ertaklarda va tasavvufda sabr va qudrat timsoli bo'lgan ulkan tog') ham uni ko'tara olmas edi.

“Savdoysi ishq” – ishqdan mast va telba bo‘lish holati, “Ko‘hi Qof” – sharq adabiyotida qudratli, ulkan, afsonaviy tog‘ sifatida tasvirlanadi. Baytda ishqning shunchalik yuksak va azobli bir kuch ekanligi ta’sirli tarzda ifodalangan. “Eram bo‘ri” va “Ko‘hi Qof” nomlari parilar yashaydigan joylarning afsonaviy nomlaridir.

Huvaydo ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, u didaktik she’riyat namoyandasi sifatida o‘zbek mumtoz adabiyotida tanildi. Adib g‘azal janrida salmoqli mehnat qildi. Uning ijodida didaktik ruh ustuvor. Shoир mumtoz she’riy janrlarda betakror o‘xshatishlari, Qur’on va hadis mavzulari asosida yaratilgan g‘azallaridagi g‘oya necha asr o‘tsa hamki, o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

Huvaydo ijodida kitobat, tajohuli orifona, ta’did, mubolag‘a, talmeh (ishora) va tashbeh (o‘xshatish) san’atlari muhim badiiy vositalar sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, ularning har biri shoirning tasavvufiy, falsafiy va estetik qarashlarini ifodalashda xizmat qilgan. U lirkada o‘z yo‘lini, o‘z badiiy mahoratining nozik qirralarini ko‘rsata oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xojamnazar Huvaydo. Devon. –T.: Yangi asr avlod. 2017. –B. 202.
2. Atouullo Husayniy. Badoye’ us-sanoye – T.: 1990.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari – T.: O‘zbekiston. 2002.
4. Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. –T.: 1975.
5. Hojiahmedov A. She’r san’atlari va mumtoz qofiya. – T.: O‘qituvchi, 1999.
6. Zaripova, D. (2023). THE IMAGE OF ISKANDAR IN HUVAIDO’S WORK. *Science and innovation*, 2(C11), 50-53.
7. Zaripova, D. (2022). I PUT FIRE INTO THE CHEST OF MY BELOVED... *Science and Innovation*, 1(8), 428-431.